



**Received:** June 23, 2025  
**Accepted:** August 23, 2025  
**Available online:** August 25, 2025

## **Sobir Tuychiyev**

Mustaqil izlanuvchi  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### **FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AKT TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolaning maqsadi fransuz va o'zbek tillaridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) terminlarining leksikografik tavsifi, ularning shakl-ma'no munosabatlari hamda funksional-pragmatik xususiyatlarini aniqlash va mazkur ikki til materiallari asosida qiyosiy tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Tadqiqotning obyektini fransuz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan AKT terminlari, ularning lug'atlardagi izohlanish shakllari, semantik talqinlari va real nutqdagi funksional qo'llanish doiralari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini, avvalo, AKT terminlarining morfologik tuzilishi, semantik tarkibi va funksional belgilari, shuningdek, fransuz va o'zbek raqamli hamda an'anaviy lug'atlarida (Le Robert (2020), Larousse (2018), CNRTL (Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales), DDF (2021) va O'zbek izohli lug'atlari) terminlarga berilgan leksikografik tavsiflar, hamda AKT terminlarining terminologizatsiya jarayonidagi o'rni tashkil qiladi.

Maqolaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, fransuz va o'zbek tillaridagi AKT terminlarining shakl-ma'no munosabatlarini leksikografik yondashuv asosida tahlil qilish; ikkinchidan, "Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati" materiallari asosida terminlarning tarkibiy-semantik modellari aniqlash; uchinchidan, har ikki til terminlarining funksional qo'llanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish; to'rtinchidan, terminologizatsiya jarayonining til tizimigina ko'rsatadigan ta'sirini

## **Sobir Tuychiev**

Independent Researcher  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: s.tuychiev@uzswlu.uz

### **LEXICOGRAPHIC AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF ICT TERMS IN THE FRENCH AND UZBEK LANGUAGES**

#### **ABSTRACT**

The purpose of this article is to investigate the lexicographic representation of information and communication technology (ICT) terms in French and Uzbek by conducting a comparative analysis that focuses on their form-meaning relationships, semantic structure, functional-pragmatic characteristics, and both shared tendencies and language-specific features.

The object of the research comprises ICT terms used in French and Uzbek, their dictionary definitions, semantic explanations, and domains of actual usage in contemporary discourse. More specifically, the subject of the study includes the morphological and semantic structure of ICT terms, their functional properties, and the principles underlying their lexicographic description in traditional and digital dictionaries, such as Le Robert, Larousse, CNRTL, DDF, and Uzbek explanatory lexicographic sources. Particular attention is paid to the role of the terminologization process in the development of modern lexical systems.

Accordingly, the main objectives of the article are to analyze form-meaning relationships of ICT terms from a lexicographic perspective; to identify dominant structural-semantic models of terminology; to compare functional usage features in French and Uzbek; to substantiate the influence of terminologization on language development; and to assess the effectiveness of digital approaches in contemporary lexicography.

To achieve these objectives, a set of linguistic methods was applied. First, descriptive analysis was used to identify formal, semantic,

ilmiy asoslash; beshinchidan esa, zamonaviy leksikografiyada digital yondashuvning oʻrni va samaradorligini aniqlab berish.

Tadqiqot jarayonida bir qator lingvistik metodlardan kompleks foydalanildi. Avvalo, tavsifiy-lingvistik tahlil fransuz va oʻzbek tillaridagi AKT terminlarining shakl, maʼno va qoʻllanish xususiyatlarini aniqlashda asosiy metod sifatida qoʻllandi. Qiyosiy-tipologik tahlil orqali ikki til materiallari oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqlar aniqlanib, terminlarning strukturaviy va funksional jihatlari taqqoslandi. Shuningdek, leksikografik tahlil yordamida terminlarning izohli, tarjima va raqamli lugʻatlardagi rasmiy talqinlari oʻrganildi. Semantik model tahlili AKT terminlarining tarkibiy-semantik tuzilishini, ularning terminologizatsiya jarayonidagi oʻrni va semantik oʻzgarish mexanizmlarini chuqur yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqotda shuningdek korpus maʼlumotlarini kuzatish metodidan foydalanilib, terminlarning real nutqdagi qoʻllanish chastotasi va kontekstual xususiyatlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, raqamli lugʻatlar bilan ishlash metodlari (CNRTL, DDF, Le Robert, Larousse va boshqa elektron leksikografik platformalar asosida) terminlarning zamonaviy talqinlarini, variantlarini va funksional sharhlarini aniqlashda muhim manba boʻldi.

**Kalit soʻzlar:** AKT termini, leksikografiya, raqamli leksikografiya, funksional lingvistika, terminologizatsiya, fransuz tili, oʻzbek tili, maʼno munosabati, korpus, semantik tuzilish.

## KIRISH

XXI asrda raqamli transformatsiya, globallashtirish, sunʼiy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda bilimlar almashuvining internatsionallashtirish natijasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) terminologiyasi dunyoning barcha tillarida eng tez oʻzgaruvchi va eng dinamik leksik qatlamlardan biriga aylandi. AKT sohasi doimiy ravishda yangilanib borishi, yangi texnologik obyektlar, jarayonlar, platformalar va dasturiy taʼminot turlari paydo boʻlishi natijasida har yili minglab terminlar shakllanadi, mavjudlari esa semantik kengayish yoki funksional qayta ixtisoslash jarayonlarini boshdan kechiradi. Bu jarayon oʻz navbatida leksikografiya fanining ham nazariy, ham amaliy yoʻnalishlarida keskin oʻzgarishlar, yangi metodlar, yangi tipdagi lugʻatlar, yangi prinsiplar paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda. Zamonaviy leksikografiyaning eng muhim rivojlanish omillaridan biri – raqamli lugʻatshunoslikdir. Jean Pruvost [Pruvost, Jean, 2024; 1–13] va Gaston Grossning taʼkidlashicha [Gross, Gaston, 2000; 106–110], zamonaviy raqamli lugʻatlar nafaqat qogʻoz lugʻatlarning elektron koʻrinishidir, balki ular

and functional features of ICT terms. Then, comparative-typological analysis enabled the identification of similarities and differences between the two languages, while lexicographic analysis examined term interpretations in explanatory, translation, and digital dictionaries, and semantic modeling clarified the mechanisms of semantic change.

As a result, corpus observation and digital lexicographic resources were employed to analyze usage frequency, contextual behavior, and contemporary interpretations of ICT terms, demonstrating that digital lexicography plays a crucial role in reflecting terminological dynamics and ensuring accurate, up-to-date descriptions of ICT vocabulary in both languages.

**Key words:** ICT term, lexicography, digital lexicography, functional linguistics, terminologization, French language, Uzbek language, meaning relations, corpus, semantic structure.

o‘zining mustaqil tarkibiy, semantik, korpusga asoslangan va algoritmik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ma’lumotni avtomatik qayta ishlashga mo‘ljallangan elektron lug‘atlar yuqori aniqlikdagi belgilangan modellarga ega bo‘lib, ularda har bir til birligi bo‘yicha qo‘shimcha sintaktik, semantik va pragmatik ma’lumotlar beriladi.

Fransuz tilida AKT terminologiyasi nihoyatda boy va murakkab tizim bo‘lib, tarixan Le Robert [Le Robert, 2020], Larousse [Larousse Editorial Board, 2018], TLF (Trésor de la langue française) [*Trésor de la langue française informatisé (TLFi)*, 2020.], CNRTL (Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales) kabi yirik leksikografik platformalar tomonidan shakllantirilib keldi. So‘nggi yillarda esa Dictionnaire des francophones (DDF) (Dictionnaire des francophones, 2021) orqali butun frankofoniya hududidagi variantlar bir tizimga birlashtirila boshladi. Bu jarayon fransuz AKT terminlarining global maydonda funksionalligi va ko‘pmadaniyatli kommunikatsiyada tutgan o‘rnini mustahkamlamoqda. O‘zbek tilida esa AKT terminologiyasi asosan xalqaro inglizcha terminlar asosida shakllanib, izohli, ikki tilli va orfografik lug‘atlar orqali normativlashib bormoqda. “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati” (2022) o‘zbek tilidagi AKT terminlarining birlamchi kodifikatsiya jarayonida muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Lug‘atdagi terminlar struktura, semantika va qo‘llanish jihatdan zamonaviy til sistemasi uchun xarakterli bir qator xususiyatlarni namoyon etadi. Ushbu lug‘atning shakl – ma’no munosabatlari bo‘yicha tahlili AKT terminlarining qaysi modellarga asoslanib o‘zlashtirilayotganini hamda tilning morfologik moslashuv mexanizmlarini ko‘rsatib beradi.

Zamonaviy leksikografiya tadqiqotchilari ta’kidlashicha, terminologizatsiya bugungi tilshunoslikning eng muhim hodisalaridan biri bo‘lib, umumtil birliklarining maxsus soha doirasida yangi ilmiy-texnik mazmun kasb etishi bilan izohlanadi. S.A. Sadikova raqamli lug‘atlar va elektron platformalar paydo bo‘lganidan so‘ng terminlarning “leksikografik hayoti” tubdan o‘zgarganini, ular doimiy ravishda yangilanib, qayta kodifikatsiya qilinib borilayotganini ta’kidlaydi [Sadikova, Sevinch, 2023; 5–8]. Bu o‘zgarish fransuz, ingliz, o‘zbek va boshqa ko‘plab tillarda AKT terminologiyasining o‘ziga xos parallel rivojlanishiga olib kelmoqda. Fransuz va o‘zbek tillaridagi AKT terminlarining qiyosiy o‘rganilishi bir qator lingvistik omillar bilan izohlanadi: Fransuz va o‘zbek tillarida AKT terminlarining shakllanishi va rivojlanishida bir nechta muhim lingvistik omillar mavjud. Birinchi navbatda, leksikografik omil alohida ahamiyatga ega. Fransuz tilida AKT terminlari ko‘pincha milliy til doirasida moslashtiriladi. Masalan, “logiciel”, “ordinateur”, “courriel” kabi birliklar inglizcha ekvivalentlariga qaramasdan fransuz tilining o‘z imkoniyatlari asosida shakllangan. O‘zbek tilida esa bu jarayon boshqacha kechadi: terminlarning aksariyati ingliz manbalaridan bevosita o‘zlashtiriladi (“server”, “domen”, “hosting”). Bu farq lug‘atshunoslik tamoyillarida ham aks etadi – fransuz lug‘atlarida funksional tavsif kengroq va chuqurroq berilsa, o‘zbek lug‘atlarida normativ-izohli yondashuv ustuvorlik qiladi. Ikkinchi muhim omil – funksional omil. Fransuz tilida AKT terminlari faqat texnik sohada emas, balki ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ta’limiy kontekstlarda ham faol qo‘llanadi. Masalan, *identité numérique* (raqamli identitet), *sécurité*

*informatique* (axborot xavfsizligi) kabi terminlar keng ijtimoiy muhokamalarda ham uchraydi. O‘zbek tilida esa AKT terminlarining qo‘llanish sohasi ko‘proq texnik va amaliy vazifalar bilan chegaralanadi, keng jamoatchilik diskursiga kirib borish sur‘ati nisbatan sekinroq. Uchinchi omil – terminologizatsiya darajasi. Fransuz tilida ko‘plab AKT terminlari to‘laqonli milliy termin darajasiga yetgan bo‘lib, ular davlat tomonidan tasdiqlangan va keng qo‘llanadigan lingvistik birliklar sifatida shakllangan [UzAS (O‘zbekiston Respublikasining axborot siyosati standartlari), 2020; 4–33]. O‘zbek tilida esa bu jarayon hali davom etmoqda. Inglizcha terminlarning ko‘pchiligi hali to‘liq mahalliy lashmagan, ularning o‘zbekcha variantlari barqarorlashish bosqichida. Shu bois, o‘zbek AKT terminologiyasi hozirda faol rivojlanish va standartlashuv jarayonini boshdan kechirmoqda.

O‘zbek tilida AKT terminologiyasining shakllanishi va kodifikatsiyasi jarayonida 2022-yilda chop etilgan “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati” muhim manba sifatida alohida o‘rin tutadi. Lug‘atda AKTga oid yuzlab atamalar semantik, grammatik va funksional belgilari bilan tavsiflangan bo‘lib, ularning shakl – ma’no munosabatlari bo‘yicha ilmiy tahlil o‘zbek tilining terminologik tizimida faol kechayotgan o‘zgarishlarni yoritish imkonini beradi.

Zamonaviy terminologiyada “shakl va ma’no munosabati” deganda terminning tashqi tuzilishi (morfologiyasi), ichki tuzilishi (semantikasi), ma’no tarkibining izchilligi, terminning konseptual maydon bilan bog‘langanligi tushuniladi. Bu munosabat AKT terminologiyasida ayniqsa keskin ko‘rinadi, chunki mazkur sohada terminlarning paydo bo‘lish sur‘ati yuqori, semantik maydonlari keng, shakllanish modellari esa ko‘p qatlamli.

Lug‘at materiallari tahlili o‘zbek tilidagi AKT terminlarining tashqi shakl-morfologik xususiyatlari uch asosiy model asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Birinchi guruhni to‘liq o‘zlashgan (adaptatsiyalashgan) terminlar tashkil etadi. Bunday terminlar o‘zbek tilining fonetik, grafik va morfologik tizimiga to‘liq moslashgan bo‘lib, ular o‘zbekcha tarkibiy birliklar orqali shakllantiriladi: *dasturiy ta’minot*, *axborot xavfsizligi*, *ma’lumotlar bazasi*, *tarmoq kartasi* kabi birliklar bunga misol bo‘ladi. Ushbu modelda terminning milliy ekvivalenti mavjud bo‘lgani sababli semantik yopiqlik darajasi yuqori bo‘ladi, terminologik tizim esa yanada barqarorlik kasb etadi. Ikkinchi guruhni qisman moslashtirilgan xorijiy terminlar tashkil etadi. Bunda terminning asl inglizcha shakli saqlangan holda, u o‘zbek tilining grammatik tizimiga bemalol moslashib ketadi: *server*, *printer*, *skaner*, *hosting*, *parol*, *login* kabi birliklar ko‘plik (-lar), qaratqich (-ning), hol qo‘shimchalari va fe‘llashtirish shakllarini qabul qiladi (*serverlar*, *parolni tiklash*, *login qilish*). Bu holat terminologizatsiya jarayonining o‘rta bosqichini ifodalaydi – termin o‘zlashgan, ammo hali to‘liq milliy lashmagan. Uchinchi guruh — to‘g‘ridan-to‘g‘ri transkripsiya qilingan (adaptatsiyasiz) terminlar bo‘lib, ular ayniqsa AKTning eng yangi innovatsion atamalarida uchraydi. *Blockchain*, *cloud computing*, *big data*, *API*, *IoT* kabi terminlar shakl jihatidan o‘zgartirilmaydi va leksikografik manbalarda odatda lotin yozuvida berilib, izoh orqali normativ ma’nosi ko‘rsatiladi. Bu model fransuz tilidagi “anglitsizmlar” hodisasiga o‘xshash bo‘lib, zamonaviy terminologiya tizimida faol kengayib borayotgan qatlamni tashkil etadi.

## TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda kompleks lingvistik-metodologik yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqotning empirik materiali sifatida fransuz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) terminlari tanlandi. Terminlar korpusi an'anaviy va raqamli leksikografik manbalar, xususan, fransuz tilidagi *Le Robert*, *Larousse*, *CNRTL*, *Dictionnaire des francophones (DDF)* hamda o'zbek tilidagi izohli va terminologik lug'atlar materiallari asosida shakllantirildi. Tanlangan terminlar shakl, ma'no va qo'llanish doirasi jihatidan tizimli ravishda saralandi va tavsiflandi.

Tadqiqot jarayonida asosiy metod sifatida tavsifiy-lingvistik tahlil qo'llanildi. Ushbu metod yordamida AKT terminlarining morfologik tuzilishi, semantik tarkibi hamda funksional belgilari aniqlanib, ularning lug'atlardagi izohlanish modeli tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning shakl–ma'no munosabatlari, semantik yadro va periferiya elementlari, metaforik va terminologik ko'chish mexanizmlari izchil ravishda o'rganildi. Tavsifiy tahlil terminlarning leksikografik talqinidagi umumiy tendensiyalarni aniqlashga xizmat qildi.

Fransuz va o'zbek tillaridagi AKT terminlarining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi. Ushbu metod terminlarning shakllanish modellari, milliy va xalqaro o'zlashuv darajasi, semantik moslashuv xususiyatlari hamda funksional qo'llanish doiralarini taqqoslash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil natijasida ikki til terminologik tizimining leksikografik tamoyillari, normativlashuv darajasi va terminologizatsiya jarayonidagi o'ziga xosliklar aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda leksikografik tahlil va korpusga asoslangan kuzatuv metodi qo'llanildi. Leksikografik tahlil orqali terminlarning lug'at maqolalaridagi mikrostrukturasi, izoh berish usullari, funksional va pragmatik belgilarining ifodalanish xususiyatlari o'rganildi. Korpusga asoslangan kuzatuv esa AKT terminlarining real nutqdagi qo'llanish chastotasi, kontekstual xususiyatlari va funksional barqarorligini aniqlashga xizmat qildi. Mazkur metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xulosalarning ishonchliligini ta'minladi.

## NATIJALAR VA MUNOZARA

AKT terminlarining ichki shakli deganda, avvalo, ularning semantik tuzilishi, ma'no qatlamlari, konseptual maydon bilan bog'lanishi hamda umumtil birliklari bilan bo'lgan munosabatlari nazarda tutiladi. "Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati" (2022) va boshqa leksikografik manbalar asosida olib borilgan tahlil AKT terminlarining semantik strukturasi bir nechta faol jarayonlar — metaforizatsiya, terminologik ko'chish (transfer), shuningdek, ma'no torayishi va kengayishi kabi hodisalar ustuvor ekanini ko'rsatadi. Bu jarayonlar nafaqat yangi terminlarning yuzaga kelishida, balki mavjud terminlarning terminologik tizim ichida qayta shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi.

AKT terminlarining sezilarli qismi oddiy, kundalik til birliklarining metaforik kengayish orqali maxsus ilmiy-texnik tushunchani ifoda etishiga asoslanadi. Bunda tilning umumiy leksikasidagi so'zlar yangi konseptual sohaga ko'chiriladi va ular



bilan bogʻliq yangi semantik komponentlar shakllanadi. Masalan:

- *oyna* — dasturiy interfeys elementini, monitor ekranidagi “window”ni bildiradi;
- *daraxt tuzilmasi* — maʼlumotlar yoki papkalar iyerarxik joylashuvini anglatuvchi *tree structure* modeli;
- *tugun* — tarmoqdagi *node*, yaʼni maʼlum bir nuqtani, aloqa chorrahasini bildiradi;
- *kalit* — shifrlash jarayonlarida *key*, autentifikatsiya va kriptografiyada muhim semantik yukga ega birlik.

Bu misollarda “oyna”, “daraxt”, “tugun”, “kalit” kabi soʻzlarning boshlangʻich lugʻaviy maʼnolari saqlanib qolgan holda, AKT sohasi uchun yangi, metaforik, ammo aniq chegaralangan texnik maʼnolar qabul qilgani koʻrinadi. Demak, metaforizatsiya ichki shaklni (semantik struktura) boyitish bilan birga, terminologik tizimni ham intuitiv va tushunarli qiladi: foydalanuvchi yangi terminni butunlay begona shakl emas, balki mavjud konsept orqali qabul qiladi. S.A. Sadikova zamonaviy elektron lugʻatlar tahlilida aynan mana shu jarayonni – kundalik soʻzlarning texnik maʼnoda metaforik kengayishini – raqamli leksikografiyaning asosiy tendensiyalaridan biri sifatida koʻrsatadi [Sadikova, Sevinch, 2023; 5–8]. U elektron lugʻat maqolalarida metaforik maʼnolarni aniq ajratib koʻrsatish, ularni maxsus belgilash va izohlar orqali mustahkamlash zarurligini taʼkidlaydi, chunki foydalanuvchi koʻpincha lugʻatga “tayyor bilimlar zaxirasi” bilan kiradi va metaforik maʼnoni kontekst yordamida ochadi

Metaforizatsiya jarayoni fransuz tilidagi AKT terminologiyasida ham juda faol kuzatiladi. Masalan, *fenêtre* (oyna), *arborescence* (daraxtsimon tuzilma), *nœud* (tugun), *clé* (kalit) kabi birliklar fransuz tilida ham umumtil birliklari boʻlib, AKT sohasida maxsus texnik termin darajasiga koʻtarilgan. Bu holat fransuz va oʻzbek tilidagi semantik modellarning tipologik yaqinligini koʻrsatadi: har ikkala tilda ham ichki shakl metaforaga tayanadi, faqat leksikografik qayd etish uslubi va normativ daraja farqlanadi. Metaforizatsiya shuni koʻrsatadiki, AKT terminologiyasi “mutlaqo yangi” soʻzlardan emas, balki tilning mavjud semantik resurslaridan foydalanadi. Natijada ichki shaklda ikki qatlam – umumtil maʼnosi va maxsus texnik maʼno – bir vaqtning oʻzida mavjud boʻladi, bu esa terminologik tizimning koʻp qatlamliligini taʼminlaydi.

AKT terminlarining ichki shaklini belgilovchi yana bir muhim jarayon – terminologik koʻchish, yaʼni boshqa fan va sohalaridan tayyor terminlarning oʻzlashtirilishi va yangi konseptual maydonga koʻchirilishidir. Tibbiyot, fizika, matematika, lingvistika kabi sohalaridan AKTga koʻchib kelgan koʻplab terminlar mavjud:

- *protokol* — dastlab diplomatiya yoki tibbiyotda qoʻllanilgan boʻlsa, AKTda maʼlumot almashish qoidalar majmuasi (kommunikatsiya protokoli)ni bildiradi;
- *modul* — matematika va fizika sohalarida qoʻllanib kelgan bu termin dasturiy taʼminotda maʼlum funksiyani bajaruvchi mustaqil blok sifatida, yaʼni *software module* sifatida ishlatiladi;

- *interfeys* — tilshunoslikda “til vositalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik”ni bildirgan bo‘lsa, AKTda *user interface*, *network interface* kabi texnik strukturalarning nomiga aylangan;

- *algoritm* — matematika va mantiqda qadimdan mavjud bo‘lgan tushuncha sifatida ma‘lum ketma-ket amallar majmuasini ifodalaydi; AKT sohasida esa algoritm dasturlash, sun‘iy intellekt va ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayonlarining asosiy tushunchasiga aylangan.

Bunday terminlar boshqa sohalardan “tayyor semantik skelet” bilan AKTga ko‘chib keladi, ammo yangi sohaga mos ravishda ularning ichki semantik strukturasida ixtisoslashuv, ma‘no torayishi va qo‘shimcha semantik komponentlar paydo bo‘ladi. Shu ma‘noda terminologik ko‘chish fanlararo integratsiyaning bevosita ko‘rinishi bo‘lib, AKT terminologiyasining ko‘p fanli tabiatini aks ettiradi. “Lexicography and Terminology: A Worldwide Outlook” (2009) to‘plamida terminlarning turli fanlararo sohalarda ko‘chishi, yangi konseptual tuzilmalar bilan boyishi va shu jarayonni leksikografik jihatdan qayd etish muammolari batafsil yoritilgan. Xususan, Myking [Myking, Johan, 2005; 101] va Alexeeva ishlarida terminologik unitlar bitta soha chegarasida qolib ketmasligi, balki yangi predmet sohalariga moslashib, semantik jihatdan qayta talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Terminologik ko‘chish AKT terminologiyasi uchun ikki tomonlama ahamiyatga ega: Ekstensiv jihat – boshqa sohalardan kelgan terminlar hisobiga AKT leksik tizimi tez kengayadi, terminlar soni ortadi; Intensiv jihat – ko‘chirilgan terminlar ichki shaklida yangi semantik komponentlar paydo bo‘ladi, ular zamonaviy texnologiyalar, raqamli jarayonlar, algoritmik modellar bilan bog‘lanadi. Bu jarayon fransuz tilida ham faol kuzatiladi. Masalan, *protocole*, *module*, *interface*, *algorithme* terminlari fransuz tilida ham gibrid statusga ega: bir tomondan umumilmiy termin, boshqa tomondan AKT sohasida ixtisoslashgan texnik atama sifatida qo‘llanadi. O‘zbek tilida ham xuddi shunday – ushbu terminlar ruscha, inglizcha va xalqaro ilmiy traditsiya orqali kirib kelgan bo‘lsa-da, AKT sohasi uchun alohida semantik qatlam hosil qilgan. Shunday qilib, metaforizatsiya va terminologik ko‘chish jarayonlari AKT terminlarining ichki shaklini belgilovchi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchisi umumtil birliklari asosida yangi texnik ma‘no yaratishni ta‘minlasa, ikkinchisi boshqa fan va sohalardagi tayyor terminlarni AKT konseptual tizimiga ko‘chiradi. Har ikkala jarayon ham o‘zbek va fransuz tillarida AKT terminologiyasining semantik tizimini murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik holga keltiradi.

AKT terminlarining ichki shaklini belgilovchi muhim semantik jarayonlardan yana biri – polisemantik kengayish, ya‘ni terminlarda bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq ma‘no qatlamlarining shakllanishidir. Lug‘at materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab AKT terminlari dastlab umumtilga oid ma‘no bilan qo‘llanib, keyinchalik raqamli texnologiyalar sohasida mutlaqo yangi texnik ma‘noni ham qabul qilgan. Masalan, *tarmoq* so‘zi o‘zbek tilida an‘anaviy ravishda “to‘r” yoki “bog‘lanish shakli”ni anglatga, AKT sohasida kompyuterlararo aloqa tizimi – *computer network*ni bildiradi. Shunga o‘xshash tarzda, *portal* so‘zi “kirish joyi” ma‘nosidan tashqari, elektron axborot platformasini ifodalovchi termin sifatida faol qo‘llanadi; *xotira* esa

“eslab qolish qobiliyati” umumiy ma’nosidan tashqari, texnik tizimlarda *memoryning* maxsus atamasi sifatida ishlatiladi. Bu holat terminologiya tizimida ko‘p qatlamli semantik strukturaning shakllanishiga, ya’ni bir birlikning bir vaqtning o‘zida ikki darajadagi konseptual sohaga tegishliligiga olib keladi.

Polisemiya fransuz tilidagi AKT terminologiyasida ham keng tarqalgan bo‘lib, *réseau* (tarmoq), *mémoire* (xotira), *portail* (portal) kabi so‘zlar umumiy va texnik ma’nolarning parallel mavjudligini namoyon qiladi. Bu jarayon Lexicography and Terminology (2009) va French Digital Lexicography tadqiqotlarida ham qayd etilgan bo‘lib, mualliflar polisemik terminlarni izohlashda kontekstning hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Polisemantik kengayish bilan bog‘liq holda AKT terminologiyasida shakl va ma’no o‘rtasida nomutanosibliklar ham kuzatiladi. 2022-yilgi “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati” asosidagi tahlil ayrim terminlarning shaklan o‘xshash bo‘lishi, fonetik yoki semantik yaqinlik sababli chalkashlik tug‘dirishi mumkinligini ko‘rsatdi. Masalan, *server* – texnik qurilma bo‘lsa-da, inglizchadagi *service* bilan fonetik yaqinligi uni yangi o‘rganuvchilar uchun noaniq qabul qilingan termin darajasiga tushiradi. *Domen* termini esa internet manzilining qismi ma’nosini anglatga-da, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan “soha, yo‘nalish” ma’nosi bilan semantik to‘qnashuv yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, *port* termini texnikada “aloqa ulangan joy”, umumtil va tarixiy ma’noda esa “dengiz porti”ni anglatadi.

Bunday omonimik va polisemiya bilan boyigan terminlar fransuz tilida ham uchraydi. Masalan, *port* so‘zi informatique sohasida “interface port”ni, maritime kontekstida esa “bandar”ni bildiradi; *tablette* esa bir tomondan elektron qurilma (planshet), boshqa tomondan esa “shokolad bo‘lagi, pastilka” ma’nosida qo‘llanadi. Bu holatlar Lexicography of the Digital Age manbasida ham batafsil tahlil qilingan bo‘lib, unda bir xil shaklning turli ma’nolarga ega bo‘lishi raqamli lug‘atlarda alohida belgilanishi kerakligi ta’kidlanadi. Demak, polisemantik kengayish va shakl–ma’no nomutanosibliklari AKT terminologiyasining murakkab semantik tizimini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ular leksikografiyada aniq belgilash, kontekstual izohlar kiritish va terminlarning funksional doiralarini ko‘rsatish talabini kuchaytiradi.

Manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi AKT terminlarining izohlanish modeli mikrostruktura jihatidan ancha tizimlashtirilgan bo‘lib, zamonaviy raqamli leksikografiyaning umumiy standartlariga mos keladi. Lug‘at maqolalarining ichki tuzilishi bir nechta majburiy komponentlardan tashkil topadi. Birinchidan, atama shakli beriladi – u lotin grafikasi yoki o‘zbek grafikasida yozilishi mumkin. Bu, ayniqsa, transkripsiyasiz kirgan yangi terminlarda (API, IoT, blockchain) muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, qisqa izoh beriladi, unda terminning asosiy semantik yadrosi, asosiy texnik tushunchani ifodalaydigan mazmun qisqacha ko‘rsatiladi. Uchinchidan, funksional izoh keltiriladi, ya’ni terminning texnologik tizimning qaysi qismiga tegishli ekani, qaysi jarayon yoki texnik birlikni bildirishi izohlanadi. Bu yondashuv terminning konseptual maydonini aniq belgilashga yordam beradi. To‘rtinchidan, lug‘at maqolasida ko‘pincha qo‘llanish ko‘lami – terminning qaysi



texnik sohalarida, dasturlash tillarida, tarmoq texnologiyalarida yoki xavfsizlik tizimlarida qo'llanishi ko'rsatib o'tiladi. Beshinchidan, mikrostrukturaning muhim elementi sifatida inglizcha muqobil shakl keltiriladi. Bu, ayniqsa, AKT terminlari uchun juda zarur, chunki amaliyotda inglizcha shakl deyarli doimiy ishlatiladi va o'zbekcha izoh ushbu shaklga tayangan holda beriladi. Ushbu mikrostrukturaviy yondashuv o'zbek AKT lug'atchiligining xalqaro standartlarga yaqinlashganini ko'rsatadi. Mazkur model fransuz leksikografiyasidagi TLF (*Trésor de la langue française*), DDF (*Dictionnaire des francophones*), CNRTL (*Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales*) kabi yirik leksikografik platformalarning mikrostrukturasi bilan juda yaqinlikka ega. Ayniqsa, *French Digital Lexicography* tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, raqamli lug'atlarda terminning funksional izohi va qo'llanish kontekstini keltirish – foydalanuvchi uchun asosiy tushuntirish vositasi hisoblanadi va o'zbek lug'atlarida ham ushbu strukturaning qo'llanilishi terminologik aniqlik va standartlashtirish jarayonining kuchayganidan darak beradi.

Fransuz va o'zbek tillarida AKT terminlarining shakllanishi, qo'llanilishi va normativlashuvi til taraqqiyoti, jamiyatning texnologik rivojlanish sur'atlari, davlatning til siyosati va leksikografik an'analari kabi bir qator tarixiy, ijtimoiy va lingvistik omillar ta'sirida turlicha yo'nalishda shakllangan. Fransuz tilida AKT terminlari, avvalo, milliy tilning ichki resurslari asosida moslashtirilgan, ya'ni inglizcha terminlarning ko'pchiligi fransuzcha ekvivalentga ega bo'lib, ular L'Académie française, CNRTL, TLF, DDF kabi davlat tomonidan tartibga solinadigan va korpus asosida ishlaydigan yirik leksikografik tizimlar orqali rasmiy me'yorga keltirilgan. Natijada, *logiciel*, *courriel*, *pare-feu*, *arborescence* kabi ko'plab milliy terminlar shakllangan va texnik hamda ijtimoiy nutqda barqaror qo'llanilmoqda. O'zbek tilida esa AKT terminlarining shakllanish jarayoni boshqacharoq kechmoqda: terminlarning katta qismi ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashuvlar (*server*, *hosting*, *domen*), yarim moslashgan shakllar (*login qilish*, *parolni tiklash*), shuningdek, tavsifiy birikmalar (*dasturiy ta'minot*, *tarmoq xavfsizligi*) orqali lug'aviy tizimga kirib kelmoqda. Bu holat o'zbek tilida AKT terminologiyasi hali ham faol rivojlanish va standartlashuv jarayonida ekanini ko'rsatadi.

Zamonaviy leksikografiya bo'yicha fransuz tadqiqotchilari xususan, Jean Pruvost [Pruvost, Jean, 2024; 1–13], Gaston Gross [Gross, Gaston, 2000; 106–110] va boshqa olimlar ta'kidlaganidek, terminlarning funksional qo'llanilishi ularning real kommunikatsiyadagi o'rnini belgilovchi eng muhim mezonlardan biridir. Ularning fikricha, har qanday termin, ayniqsa texnologiya va raqamli kommunikatsiya sohalarida, faqat lug'atdagi talqini bilan emas, balki foydalanuvchi nutqida qanday ishlatilayotgani bilan baholanadi. Shu sababli fransuz leksikografiyasida terminning funksional tavsifi – uning qaysi jarayonda, qanday kontekstda va qanday nutq vazifasida qo'llanishi – lug'at maqolasining majburiy qismi sifatida beriladi.

O'zbek leksikografiyasida ham so'nggi yillarda ushbu mezon alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan, AKT terminlarini umumtilga moslashtirish, ularning semantik chegaralarini belgilash, qo'llanish doiralarini izohlash jarayonida funktsionallik muhim ko'rsatkich sifatida qaralmoqda. "Axborot texnologiyalari

atamalarining izohli lug‘ati” (2022)da ham terminlar izohlanar ekan, ularning texnik qo‘llanish sohasi, jarayonga taalluqliligi, ba‘zan inglizcha muqobili va qo‘llanish ko‘lami alohida komponent sifatida kiritilgan. Bu esa o‘zbek terminologiyasi raqamli leksikografiyaning xalqaro standartlariga yaqinlashayotganidan dalolat beradi.

Fransuz va o‘zbek tillarida AKT terminlarining qo‘llanish doirasi bir qator omillar –milliy til siyosati, leksikografik me‘yorlar, jamiyatning raqamli savodxonlik darajasi, texnologik atamalarning shakllanish tarixi va fanlararo terminologiya oqimlarining xususiyatlari – ta‘sirida rivojlanib, o‘ziga xos modelga ega bo‘lib borgan. Ushbu farqlar ayniqsa rasmiy-texnik qo‘llanish sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Rasmiy-texnik qo‘llanish sohasi AKT terminologiyasining eng barqaror qatlamiga kiradi. Bu qatlam dasturiy ta‘minot hujjatlari, texnik reglamentlar, standartlar, davlat IT siyosatlari, algoritmik jarayonlar tavsifi va server konfiguratsiyalarida qo‘llaniladigan terminlarni o‘z ichiga oladi. Har ikki tilda mazkur qatlamning asosiy xususiyati – terminlarning normativligi, semantik aniqligi va funksional barqarorligidir.

Fransuz tilida bu qatlam yuqori darajada me‘yorlashtirilgan bo‘lib, *sécurité informatique, système d’exploitation, pare-feu, fichier, courriel* kabi terminlar umumiy va texnik nutqda barqaror ishlatiladi. Fransuz tilidagi rasmiy terminlar davlat tomonidan tartibga solinadigan institutsional mexanizmlar orqali tasdiqlanadi. Bunday tashkilotlar qatoriga L’Académie française, Commission d’enrichissement de la langue française, CNRTL va TLF kiradi. *French Digital Lexicography* manbasida qayd etilishicha, ushbu institutlar fransuz tilining AKT sohasidagi mustaqilligini saqlash, inglizcha terminlarga haddan tashqari qaramlikni kamaytirish, milliy ekvivalentlarni mustahkamlash va semantik aniqlikni ta‘minlashga qaratilgan siyosatni yuritadi. Natijada fransuz AKT terminologiyasi xalqaro miqyosda yuqori darajadagi standartlashtirilgan terminologik tizim sifatida e‘tirof etiladi.

O‘zbek tilida rasmiy-texnik qo‘llanish sohasida ikki asosiy termin qatlamining mavjudligi kuzatiladi. Birinchisi, to‘liq milliyalashtirilgan terminlar bo‘lib, ular o‘zbek tilining ichki resurslari asosida shakllangan: *axborot xavfsizligi, dasturiy ta‘minot, tarmoq, ma‘lumotlar bazasi* kabi birliklar rasmiy hujjatlar, o‘quv qo‘llanmalar va davlat standartlarida mustahkam o‘rin egallagan. Ikkinchi qatlamni esa inglizcha shaklning moslashgan variantlari tashkil etadi:  *fayl, server, hosting, login, parol* kabi so‘zlar fonetik jihatdan moslashgan bo‘lsa-da, hali to‘liq milliy termin maqomini olmagan. Ba‘zi hollarda tavsifiy izohlar yordamida ikki shakl parallel qo‘llanadi: *profilaktik devor (firewall), elektron pochta / email*. Bu holat o‘zbek tilidagi terminologik tizimning o‘tish davrida ekanidan, milliyalashtirish va standartlashtirish jarayoni izchil rivojlanayotgan bo‘lsa-da, hali fransuz tilidagidek markazlashgan normativ siyosatga ega emasligidan dalolat beradi. Ushbu farqlarning yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo‘lmoqda. Birinchidan, AKT sohasidagi global ingliz tilining ustunligi o‘zbekchaga so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelishini tezlashtiradi. Ikkinchidan, o‘zbek tilida terminologiya komissiyalari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, ularning qarorlari fransuz modelidagi kabi majburiy normativ maqomga ega emas. Uchinchidan, texnik mutaxassislar amaliyotda inglizcha shakllardan keng foydalanadi, bu esa milliyalashtirish jarayonining sekinlashuviga olib keladi. Shunday

ekan, AKT terminlarining rasmiy-texnik qo‘llanishi ikki tilning terminologik siyosati, leksikografik an‘analari va ijtimoiy-texnologik ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, fransuz tilida yuqori darajada standartlashgan model, o‘zbek tilida esa dinamik rivojlanayotgan, o‘tish holatidagi model sifatida namoyon bo‘ladi.

AKT terminlarining ijtimoiy-madaniy diskursdagi qo‘llanishi fransuz va o‘zbek tillarida sezilarli darajada farq qiladi va bu farq har ikki til jamiyatining raqamli madaniyatga moslashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Fransuz tilida AKT terminlari nafaqat texnik sohada, balki ijtimoiy, siyosiy, madaniy, pedagogik, etik va huquqiy kontekstlarda ham faol qo‘llanadi. Masalan, *identité numérique* (raqamli identitet), *cyberharcèlement* (kiberbulling), *réalité virtuelle* (virtual reallik), *vie privée numérique* (raqamli shaxsiy hayot) kabi terminlar fransuz jamoatchilik diskursida keng tarqalgan bo‘lib, raqamli jamiyatning dolzarb masalalarini ifodalashda muhim kommunikativ birlik sifatida xizmat qiladi. Bu holat fransuz tilining AKT bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarni til vositasida faol va tizimli tarzda nomlashga intilayotganidan dalolat beradi. DDF (*Dictionnaire des francophones*, 2021) tizimi materiallari ham ushbu jarayonni tasdiqlaydi: unda Fransiya, Kanada (Kvebek), Belgiya, Shveysariya va Afrika davlatlarida qo‘llanadigan AKT terminlarining variantlari, ularning stilistik boyligi va qo‘llanish darajalari qayd etilgan. Bu esa fransuz tilining global xarakteri va mintaqaviy tarmoqlangan AKT diskursiga ega ekanligini ko‘rsatadi. *French Digital Lexicography* tadqiqotlari ham fransuz tilidagi AKT terminologiyasi yagonalik emas, balki ko‘p markazlilik (pluricentric) tamoyili asosida shakllanishini, ya‘ni turli frankofon mintaqalarda AKT bilan bog‘liq ijtimoiy tushunchalarni ifodalashda ozgina farqlarga ega variantlar mavjudligini ta‘kidlaydi.

O‘zbek tilida AKT terminlarining ijtimoiy-madaniy qatlamini ifodalovchi birliklar so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaygani sari *sun‘iy intellekt etikasi*, *raqamli madaniyat*, *internet odobi*, *masofaviy ta‘lim platformasi*, *kiberjinoyatchilik* kabi birliklar faol qo‘llanmoqda. Mazkur terminlarning aksariyati tavsifiy birikmalar shaklida yuzaga kelgan bo‘lib, bu holat AKTga oid ijtimoiy tushunchalar o‘zbek tilida hali shakllanish bosqichida ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, terminlarning ko‘pchiligi ingliz tili orqali o‘zlashgan konseptlarni izohlab beruvchi tavsifiy modelga tayanadi, bu esa o‘zbek tilida kompakt, yagona termin yaratish jarayoni hali davom etayotganidan darak beradi. Fransuz tilida esa aksincha, yuqoridagi tushunchalar ko‘pincha bitta kompakt termin orqali ifodalanadi (masalan, *cyberéthique* – “sun‘iy intellekt etikasi”, *cyberculture* – “raqamli madaniyat”). Shu sababli fransuz tilida ijtimoiy AKT terminlari semantik jihatdan ixcham, morfologik jihatdan standartlashtirilgan va jamoatchilik nutqida keng qo‘llaniladigan birliklar tizimini tashkil etadi. O‘zbek tilida esa mazkur qatlamning shakllanishi davom etmoqda va terminlar ko‘p hollarda tavsifiy modellar orqali nutqqa kirib kelmoqda. Umuman olganda, fransuz tilida AKT terminlarining ijtimoiy-madaniy qo‘llanishi yuqori darajada funksional diversifikatsiyaga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida bu jarayon kengayib borayotgan, lekin hanuz barqarorlashuv bosqichida bo‘lgan qatlam sifatida tavsiflanadi.

Fransuz va o‘zbek tillarida AKT terminlarining funksional-semantik tizimi

ularning texnik, konseptual va kommunikativ vazifalariga ko'ra shakllanadi. Terminlarning qaysi texnologik jarayonga taalluqli ekanligi, ular qanday tushunchani ifodalashi va tilning ichki resurslari asosida yoki tashqi manbalardan o'zlashish yo'li bilan shakllanganiga qarab, ularni turli guruhlariga ajratish mumkin. Ushbu bo'limda AKT terminologiyasining ikki yirik qatlam – qurilma va texnik obyektlar terminlari hamda dasturiy ta'minot terminlari – fransuz va o'zbek tillaridagi qiyosiy ko'rinishida tahlil qilinadi. AKTning texnik bazasini tashkil etuvchi terminlar har ikki tilda semantik jihatdan barqaror bo'lib, ular global texnologik tizimga mos keladi. Biroq terminlarning shakllanish manbalari va milliylashtirilganlik darajasi sezilarli farq qiladi. Quyidagi jadval fransuz va o'zbek tillaridagi asosiy terminlar o'rtasidagi farqlarni umumlashtiradi:

Fransuzcha	O'zbekcha	Izoh
<i>ordinateur</i>	<i>kompyuter</i>	Fransuz tilida to'liq milliy termin; o'zbekchada xalqaro o'zlashma.
<i>clavier</i>	<i>klaviatura</i>	Fransuzcha milliy termin; o'zbekchada rus tili orqali o'zlashgan.
<i>serveur</i>	<i>server</i>	Ikkala tilda ham inglizcha o'zlashma.
<i>pare-feu</i>	<i>firewall / profilaktik devor</i>	Fransuz tilida milliy variant ustun; o'zbekchada inglizcha shakl faol.

Ushbu tahlil fransuz tilida texnik obyektlarni nomlashda milliy termin yaratish an'anasi kuchli ekanini ko'rsatadi. Bu holat davlat terminologiya siyosati, normativ komissiyalarning faoliyati va AKT terminlarini fransuz tiliga moslashtirishga qaratilgan institutsional yondashuv bilan ta'minlanadi. O'zbek tilida esa aksincha, inglizcha o'zlashmalar ustun bo'lib, milliylashtirish jarayoni sekinroq kechadi. Milliy ekvivalentlar ko'proq tavsifiy birlikmalar shaklida namoyon bo'ladi (*profilaktik devor* kabi), bu esa leksik tizimning dinamik va o'tish holatida ekanidan dalolat beradi. Dasturiy ta'minotga oid terminlar har ikki tilda keng qo'llanadi, biroq milliylashtirishning chuqurligi va semantik barqarorlik nuqtayi nazaridan farqlar mavjud. Fransuz tilida quyidagi terminlar keng tarqalgan: *logiciel, application, système, fichier, mise à jour*. Bu terminlarning katta qismi fransuz tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan bo'lib, ayniqsa *logiciel* termini inglizcha *software*ning to'liq funksional ekvivalenti sifatida normativ maqomga ega. O'zbek tilida ushbu soha terminlari quyidagilardan iborat: *dastur, ilova, tizim, fayl, yangilash*. Bu birliklarning bir qismi milliy shaklda (*dastur, tizim, yangilash*) mavjud bo'lsa-da, *fayl* kabi terminlar ingliz tilidan o'zlashgan holda qo'llanadi. *Ilova* termini semantik jihatdan barqaror bo'lsa-da, inglizcha *application/app*ning barcha ma'no qatlamlarini to'liq qamrab olmaydi, chunki ingliz tilida ushbu birlik ko'proq mobil ekotizim va foydalanuvchi interfeysi kontekstlarida qo'llanadi. Shu bois, fransuz tilida dasturiy ta'minot terminlari ko'proq markazlashtirilgan va milliylashgan model asosida shakllangan bo'lsa, o'zbek tilida aralash model – milliy, o'zlashma va tavsifiy birliklardan iborat tizim kuzatiladi. Qurilma va dasturiy ta'minot terminlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, fransuz tilida AKT terminologiyasi yuqori darajada normativ, markazlashtirilgan va milliy til siyosatiga tayanadigan tizim

hisoblanadi. O‘zbek tilida esa ushbu qatlam dinamik, moslashuvchan va ko‘p hollarda ingliz tilidan o‘zlashmalarga asoslangan tizim sifatida shakllanmoqda. Bu farq ikki tilning leksikografik maktabi, til siyosati, texnologik mustaqillik darajasi va raqamli jamiyatni shakllantirish borasidagi yondashuvlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Internet va veb-texnologiyalar bilan bog‘liq terminlar AKT terminologiyasining eng faol rivojlanayotgan qatlamlaridan biridir. Ushbu terminlar global axborot tizimlari, onlayn platformalar, veb-interfeys va raqamli kommunikatsiya jarayonlarini nomlashga xizmat qiladi. Fransuz va o‘zbek tillarida ushbu qatlamning shakllanish manbalari, milliylashuv darajasi va qo‘llanish modeli sezilarli farqlarga ega. Quyidagi jadval ikki tilning asosiy internet terminlarini qiyosiy ko‘rinishda aks ettiradi:

Fransuzcha	O‘zbekcha
<i>navigateur</i>	<i>brauzer</i>
<i>moteur de recherche</i>	<i>qidiruv tizimi</i>
<i>réseau social</i>	<i>ijtimoiy tarmoq</i>
<i>adresse IP</i>	<i>IP manzil</i>

Ushbu terminlar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilida internetga oid terminlar ko‘pincha milliyashtirilgan shaklga ega, ya‘ni inglizcha birliklar uchun fransuz tiliga moslashtirilgan muqobillar yaratilgan. Masalan, *navigateur* termini inglizcha *browsing* to‘liq funksional ekvivalenti bo‘lib, fransuz tilining leksik-sintaktik tizimiga mos ravishda shakllangan va rasmiy me‘yorlashgan termin sifatida tan olingan. Shuningdek, *moteur de recherche* va *réseau social* kabi tavsifiy modellar raqamli jamiyatdagi asosiy tushunchalarni milliy tilda ifodalashga qaratilgan Fransiya til siyosatining amaliy natijalaridan biridir. O‘zbek tilida esa internet terminlari asosan ingliz tilidan bevosita o‘zlashgan shaklda qo‘llanadi. *Brauzer* atamasi inglizcha *browsing* fonetik moslashgan variantidir va milliyashtirilgan muqobil mavjud emas. *Qidiruv tizimi*, *ijtimoiy tarmoq* kabi birliklar tavsifiy model asosida shakllangan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha inglizcha shakllar bilan parallel qo‘llanadi (masalan, *search engine*, *social network*). Bu esa o‘zbek tilida internet terminologiyasining milliylashuv jarayoni hali yakunlanmaganini ko‘rsatadi.

Fransuz tilida AKT terminologiyasining shakllanishida inglizcha terminlarga nisbatan aniq ifodalangan normativ qarshilik siyosati mavjud. Bu siyosat fransuz tilining mustaqil terminologik tizimini saqlab qolish, ingliz tilining ortiqcha ta‘sirini cheklash va milliy leksik fondni boyitishga qaratilgan. Shu bois, inglizcha atamalar fransuz tiliga ko‘pincha bevosita o‘zlashmaydi, balki ular uchun fransuzcha muqobil variantlar yaratiladi yoki mavjud so‘zlar semantik kengayish orqali terminlashtiriladi. Masalan:

- *email* o‘rniga **courriel**,
- *software* o‘rniga **logiciel**,
- *cloud* o‘rniga qisman **nuage informatique**,
- *spam* o‘rniga **pourriel** (so‘z yasash orqali shakllangan).

Bu til siyosati Le Robert (2020), Larousse (2018), DDF (Dictionnaire des francophones, 2021) kabi yirik leksikografik tizimlar tomonidan faol targ‘ib qilinadi.



*French Digital Lexicography* tadqiqotlarida qayd etilishicha, fransuz tilidagi AKT terminologiyasi ingliz tilidagi terminlarning ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirilishidan ko‘ra, ularni fransuz tilining fonetik, morfologik va semantik tizimiga mos holda qayta shakllantirishga asoslanadi. Shu orqali fransuz tili o‘z texnik terminologiyasi ustidan nazoratni saqlab qoladi va global raqamli jarayonlarda milliy tilning funksional maqomini mustahkamlaydi.

O‘zbek tilida esa inglizcha terminlarga munosabat mutlaqo boshqa modelga asoslanadi. Inglizcha AKT terminlari ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri, minimal moslashuv bilan o‘zlashadi:

- *cloud* → **cloud**,
- *spam* → **spam**,
- *hosting* → **xosting**,
- *browser* → **brauzer**.

Bu holat o‘zbek tilining texnik sohalarda pragmatik yondashuvni tanlaganini, ya’ni global terminlarni milliylashtirishga qaraganda ularni amaliyotda mavjud shaklda qabul qilishni afzal ko‘rishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida inglizcha terminlar ko‘pincha fonetik moslashuv orqali qo‘llanadi (*browser* → *brauzer*, *hosting* → *xosting*), biroq semantik va morfologik milliylashtirish deyarli kuzatilmaydi. Shuningdek, inglizcha shaklning to‘liq saqlanishi mutaxassislar o‘rtasida tezkor aloqa va universal tushunarlikni ta’minlaydi. Demak, fransuz va o‘zbek tillaridagi terminologik siyosat ikki mutlaqo farqli yondashuvga ega: Fransuz tili – preskriptiv va milliylashtiruvchi model. Inglizcha terminlarga qarshi muqobil yaratish, milliy semantik tizimni saqlash va tilning mustaqilligini himoya qilish asosiy tamoyil hisoblanadi. O‘zbek tili – deskriptiv va o‘zlashmaga ochiq model. Inglizcha terminlar texnik mavzularda xalqaro standart sifatida qabul qilinadi, ular ko‘pincha minimal fonetik moslashuv bilan til tizimiga kiradi. Bu ikki yondashuv o‘z navbatida tilning rivojlanish mexanizmlariga, leksikografik tamoyillarga, raqamli kommunikatsiya jarayonlaridagi talab va ehtiyojlarga mos ravishda shakllangan bo‘lib, AKT terminologiyasining milliy xususiyatlarini belgilaydi.

AKT terminologiyasining rivojida metafora va semantik ko‘chish jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonlar texnik atamalarni umumiy til tizimiga yaqinlashtiradi, ularning ijtimoiy nutqda faol qo‘llanishini ta’minlaydi hamda yangi tushunchalarni til orqali talqin qilish imkonini yaratadi. Fransuz va o‘zbek tillarida ushbu hodisalar turlicha darajada namoyon bo‘lsa-da, ularning semantik mexanizmlari umumiylikka ega. Fransuz tilida AKT sohasiga oid metaforik kengayish ayniqsa kuchli bo‘lib, ko‘plab texnik tushunchalar ijtimoiy va madaniy diskursga muvaffaqiyatli singib ketgan. Masalan:

- *virus informatique* — “kompyuter virusi”,
- *pirate numérique* — “raqamli pirat”,
- *empreinte numérique* — “raqamli iz”.

Bu birliklarning barchasi metafora asosida shakllangan bo‘lib, biologiya (*virus*), jinoyatchilik (*pirate*) va antropologiya (*empreinte* – iz) sohalaridan ko‘chib kelgan terminlardir. Fransuz tilida ushbu birliklar faqat texnik sohada emas, balki

ommaviy axborot vositalari, siyosiy nutq, huquqshunoslik, psixologiya, ta'lim va madaniyat diskursida ham keng qo'llanadi. Leksikografiya manbalarida – xususan, *TLF*, *DDF* va *CNRTL* – ushbu terminlar rasmiy maqomga ega bo'lib, ularning ko'p qatlamli semantik strukturalari aniq tavsiflab berilgan. Bu esa fransuz jamiyatida AKT metaforalarining konseptual jihatdan shakllanganligini ko'rsatadi. O'zbek tilida ushbu jarayon nisbatan kech shakllanmoqda va metaforik terminlarning aksariyati tarjima yoki kalkalash asosida yuzaga kelgan:

- *kompyuter virusi*,
- *raqamli iz*,
- *axborot pirati*.

Bu birliklar texnik mazmunda to'g'ri qo'llanilsa-da, fransuz tilidagi kabi keng ijtimoiy-madaniy konnotatsiyaga ega emas. Masalan, *axborot pirati* termini o'zbek ommaviy nutqida unchalik keng qo'llanmaydi, uning o'rniga inglizcha *xaker* shakli ustun. *Raqamli iz* birikmasi esa akademik va rasmiy matnlarda qo'llanayotgan bo'lsa-da, keng jamoatchilik nutqida hali barqarorlashmagan. Bu esa o'zbek tilida AKT metaforikasining konseptual tizimi endilikda shakllanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, fransuz tilida metafora va semantik ko'chish AKT terminologiyasini boyituvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, terminlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga faol kirib borgan. O'zbek tilida esa bu jarayon asosan tarjima asosida kechmoqda va milliy konseptual tizimda to'liq mustahkamlanish bosqichiga hali yetmagan. Bu holat ikki tilning terminologik rivojlanish sur'atlari, raqamli madaniyat darajasi va metaforik modellarni qabul qilish an'analari bilan bevosita bog'liq.

Fransuz va o'zbek tillarida AKT terminologiyasining shakllanishi, qo'llanishi va funksional tizimi qator muhim jihatlar bo'yicha farqlanadi. Mazkur farqlar termin yaratish strategiyalari, til siyosati, leksikografik standartlar va ijtimoiy nutq amaliyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, har bir tilning AKT sohasidagi lingvistik yo'nalishini belgilaydi. Quyidagi umumiy xulosalar ushbu farqlarni tizimli ravishda yoritadi. Birinchidan, fransuz tili milliy termin yaratish jarayonida ancha faol bo'lib, inglizcha terminlarga fransuzcha ekvivalentlar ishlab chiqish amaliyoti ustuvor hisoblanadi (*logiciel, courriel, pare-feu* kabi). Bu jarayon fransuz tilining texnologik mustaqilligini saqlashga qaratilgan institutsional siyosatning natijasidir. Aksincha, o'zbek tilida AKT terminlarining asosiy manbai ingliz tili bo'lib, terminlarning katta qismi bevosita yoki qisman moslashuv bilan o'zlashadi (*server, cloud, hosting, brauzer*). Ikkinchidan, fransuz tilida terminlarning normativlashuvi davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi. L'Académie française, Commission d'enrichissement de la langue française, CNRTL va boshqa rasmiy organlar terminlarga rasmiy maqom beradi, ularning qo'llanish doirasini belgilaydi va variantlar ustidan nazoratni amalga oshiradi. O'zbek tilida esa normativlashuv jarayoni izchil rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, u hali fransuz modelidagidek markazlashtirilgan va majburiy xarakterga ega emas. Uchinchidan, fransuz AKT terminlari texnik doiradan tashqariga chiqib, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va pedagogik kontekstlarda faol ishlatiladi. Masalan, *empreinte numérique, cyberharcèlement, identité numérique* kabi birliklar keng kommunikativ qo'llanishga ega. O'zbek tilida esa AKT terminlari asosan texnik kontekstda qo'llanadi, ijtimoiy-

madaniy metaforik qatlam hali shakllanish bosqichida. Toʻrtinchidan, fransuz tilida har bir terminning funksional koʻlami aniq belgilangan: rasmiy, texnik, ilmiy, pedagogik yoki umumxalq nutqida qoʻllanish sferasi lugʻatlarda koʻrsatiladi. Bu terminologiyaning aniq semantik chegaraga ega boʻlishini taʼminlaydi. Oʻzbek tilida esa terminlarning funksionalligi koʻproq oʻzlashgan shaklning barqarorlashuviga bogʻliq, yaʼni termin ommaviy nutqda qabul qilinishi uning qoʻllanish sferasini belgilaydi. Beshinchidan, fransuz lugʻatlarida terminlarning qoʻllanish registri (fam., cour., techn.), variantlari, mintaqaviy shakllari, stilistik belgisi batafsil koʻrsatiladi. Bu koʻrsatkichlar foydalanuvchiga terminning aniq pragmatik vaznini tushunishga yordam beradi. Oʻzbek izohli lugʻatlarida bu mexanizm endi shakllanmoqda, registr, variant va mintaqaviy koʻrsatkichlar hali keng qoʻllanilmaydi. Umuman olganda, fransuz tilida AKT terminologiyasi markazlashtirilgan, normativ va funksional jihatdan diversifikatsiyalangan tizimni tashkil etsa, oʻzbek tilida bu soha dinamik, oʻzlashmaga tayanadigan, barqarorlashayotgan tizim sifatida namoyon boʻladi. Ushbu farqlar kelgusida AKT terminologiyasining rivojlanish strategiyasini belgilashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Terminologizatsiya – umumtil birliklarining maʼlum bir ilmiy, texnik yoki kasbiy sohaga xos maxsus tushunchani nomlash uchun yangi, aniq va qatʼiy maʼno kasb etishi jarayonidir. Bu hodisa zamonaviy tilshunoslikning markaziy muammolaridan biri boʻlib, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) sohasi terminologizatsiyaning eng faol maydoniga aylangan. Chunki AKT bozorining keskin kengayishi, sunʼiy intellekt, raqamli maʼlumotlar, kibermakonning ijtimoiylashuvi kabi jarayonlar kundalik tilga taʼsir koʻrsatib, yuzlab yangi terminlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda. Leksikografik manbalarda qayd etilishicha, XXI asrda til tizimiga taʼsir kuchi eng yuqori boʻlgan soha – AKT terminologiyasi. Bu jarayon fransuz, ingliz, oʻzbek, ispan, arab va boshqa tillarda global miqyosda kuzatilib, har bir til oʻz terminologik siyosati asosida mazkur oʻzgarishlarga moslashmoqda. Terminologiya nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yoʻnalish sifatida shakllandi va bu jarayon Wüster (1979), Cabré (1999), Shcherba (1936), Myking (2005), Alexeeva kabi yirik tadqiqotchilarning ishlari bilan mustahkamlandi. Ularning ilmiy qarashlari terminologizatsiya jarayonining konseptual, semantik va kommunikativ asoslarini belgilab berdi hamda zamonaviy terminshunoslikning metodologik poydevorini yaratdi.

Terminologiya nazariyasining rivojida L.V. Shcherba (1936–1953) alohida oʻrin egallaydi. Uning taʼkidlashicha, terminologizatsiyaning markazida maʼnodagi aniqlik, tushunchaning chegaralanganligi, kontekstga bogʻliqlik va differensial semalar turadi. Shcherba terminlarni “ilmiy tafakkurning kristallashgan shakli” deb talqin qilib, ularning kontekstdan tashqarida ham barqaror semantik mazmunga ega boʻlishi lozimligini taʼkidlaydi. Uning mazkur yondashuvi hozirgi zamon terminologiya izohlarida, xususan AKT terminlarini aniqlashda ham dolzarbligini saqlab qolgan. Terminologiya fani shakllanishida avstriyalik olim Eugen Wüsterning hissasi beqiyosdir [Wüster, Eugen, 1979; 45–67]. U klassik terminologiya maktabining asoschisi sifatida tanilgan boʻlib, terminologiyaning asosiy vazifasini atamalarni

tartibga solish, unifikatsiya qilish, universal konseptual tizim yaratish deb belgilagan. Wüstering eng muhim tamoyillaridan biri – “bir shakl – bir ma’no” prinsipi bo‘lib, bu terminologiyada polisemiya imkon qoldirmaslikka qaratilgan normativ yondashuv hisoblanadi. Bu prinsip texnik va ilmiy terminologiyada aniqlikni ta’minlashning asosiy vositasiga aylangan. Ispaniyalik olim Maria Teresa Cabré esa terminologiyani sof nominativ hodisa sifatida emas, balki kommunikativ jarayonning tarkibiy qismi sifatida talqin etadi [Cabré, Maria Teresa, 1999; 11–33]. Uning “konsept – belgi – kontekst” uchligi asosidagi modeli terminning ma’nosi doimo real nutq jarayonida belgilanishini ko‘rsatadi. Cabré terminlarni statik birlik emas, balki kommunikativ ehtiyoj mahsuli, ya’ni diskursga bog‘liq dinamik birlik sifatida tahlil qiladi. Bu yondashuv ayniqsa AKT terminlarining ijtimoiy-madaniy kontekstdagi qo‘llanishini tushuntirishda samaralidir. Norvegiyalik olim Johan Myking yangi fan sohalarida terminlarning shakllanish jarayonini o‘rgangan [Myking, Johan, 2005; 88–101]. Unga ko‘ra, “yangi fanlar yangi terminlarni talab qiladi”, shu bois AKT kabi jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlarda terminologizatsiya jarayoni ham juda tez kechadi. Mykingning fikricha, yangi terminlarning katta qismi metaforik asosda yuzaga keladi; masalan, *virus*, *tarmoq*, *daraxt tuzilmasi* kabi terminlar metaforik ko‘chish mahsulidir. Bu jarayon zamonaviy leksikografiya tadqiqotlarida ham tasdiqlanadi.

Metaforizatsiya fransuz tilida ham keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab texnik terminlar tabiiy konseptlardan ko‘chadi. Masalan: *arborescence* – “daraxtsimon tuzilma”, *fenêtre* – “oyna”, *nœud* – “tugun”. Bu hodisa Mykingning “yangi fanlar yangi metaforik terminlarni talab qiladi” degan nazariy qarashlarini tasdiqlaydi [Myking, Johan, 2005; 88–101]. Metaforizatsiya nafaqat semantik jihatdan qulaylik yaratadi, balki yangi texnik konseptlarni umumtil asosida tushunishni osonlashtiradi, chunki terminlar abstrakt texnologik jarayonlarni konkret va tasavvurga yaqin obyektlar orqali ifodalaydi.

AKT sohasi global kommunikatsiya maydoni bo‘lgani sababli, uning asosiy terminologik manbai ingliz tilidir. Shu bois yangi texnik birliklarning aksariyati ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tarjimasiz o‘zlashadi va shu shaklda termin sifatida mustahkamlanadi. O‘zbek tilida bu jarayon ayniqsa faol bo‘lib, quyidagi birliklar keng qo‘llanadi: *server*, *hosting*, *backup*, *cloud*, *stream*, *browser*. Bu terminlar fonetik jihatdan biroz moslashadi (*browser* → *brauzer*, *hosting* → *xosting*), biroq semantik va morfologik milliylashuv odatda sodir bo‘lmaydi. Buning natijasida o‘zbek AKT terminologiyasi global texnik tizim bilan yuqori darajada uyg‘unlashadi, ammo milliy termin shakllanishi sekinlashadi. Fransuz tilida esa ushbu jarayonga institutsional qarshilik mavjud. Inglizcha terminlar o‘rniga milliy muqobillar ishlab chiqiladi:

- *email* → *courriel*,
- *software* → *logiciel*,
- *cloud* → *nuage informatique*,
- *spam* → *pourriel*.

Bu holat *French Digital Lexicography* manbalarida keng yoritilgan bo‘lib, unda fransuz tilining texnik mustaqilligini qo‘llab-quvvatlovchi rasmiy til siyosati

mavjudligi qayd etiladi. Fransiyada terminologiya davlat tomonidan tartibga solinadi, shuning uchun inglizcha o'zlashmalar ko'pincha rasmiy maqomga ega bo'lmaydi. O'zbek tilida esa aksincha, inglizcha shaklning ustuvorligi tilning pragmatik ehtiyojlari, global texnik kommunikatsiya talablarining kuchli ta'siri va markazlashtirilgan terminologik siyosatning yetarlicha qat'iy emasligi bilan izohlanadi. Demak, AKT terminologiyasida metaforizatsiya va inglizcha terminlashuv ikki asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'lib, fransuz va o'zbek tillarida ular turlicha nisbatda faoliyat ko'rsatadi. Fransuz tili terminlarni milliyalashtirishga, o'zbek tili esa global texnik standartlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishga moyildir. Bu farqlar har ikki tilning lingvistik an'analari, til siyosati va texnologik taraqqiyotga moslashuv strategiyalarini aks ettiradi.

AKT terminologiyasining muhim xususiyatlaridan biri umumtil birliklarining texnik ma'noda semantik torayishi, ya'ni ma'nosining ixtisoslashuvi hisoblanadi. Bu jarayonda umumiy so'zlar ma'lum texnologik jarayon yoki obyektni ifodalovchi aniq terminlarga aylanadi. Masalan:

Oddiy ma'no	AKTdagi terminik ma'no
<i>xotira</i>	RAM / ROM (kompyuter operativ xotirasi)
<i>maydon</i>	elektroni forma elementi ( <i>field</i> )
<i>kalit</i>	shifrlash elementi ( <i>key</i> )

Semantik torayish terminning ichki ma'nosini aniqlashtirib, uni ilmiy-texnik nutqda qat'iy chegaralangan birlik sifatida mustahkamlaydi. Bu hodisa Shcherba ta'riflagan "terminning semantik yadro barqarorligi" tamoyiliga mos keladi. AKT terminlarida bu jarayon keng ko'lamda kuzatiladi, chunki texnik tizimlar o'zaro murakkab aloqadorlikka ega bo'lib, tushunchalarni aniq differensiallashni talab qiladi. AKT terminlarining yana bir xususiyati – **semantik kengayish**, ya'ni polisemiya ega bo'lishidir. Bitta terminning bir nechta konseptual sohalarida qo'llanishi zamonaviy kommunikativ ehtiyoj natijasida shakllanadi. Masalan: **tarmoq**: ijtimoiy tarmoq (*réseau social*), kompyuter tarmog'i (*réseau informatique*); **portal**: kirish joyi, axborot platformasi (veb-portal); **platforma**: dasturiy tizim, siyosiy maydon, biznes modeli. Bu jarayon AKT terminlarining diskurslarda faol ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Fransuz tilida polisemik terminlar qat'iy nazorat ostida bo'lib, CNRTL, Le Robert, Larousse kabi lug'atlar terminning har bir ma'nosini alohida belgilaydi, registrini ko'rsatadi va misollar orqali kontekstual chegarani qat'iy belgilab beradi. O'zbek tilida bu jarayon shakllanish bosqichida bo'lib, ayrim terminlarda semantik qatlamlar hali barqarorlashmagan.

Terminologizatsiya jarayonida terminlarning grammatik tizimga moslashuvi ham muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida inglizcha o'zlashmalar morfologik jihatdan faol, ya'ni ular tilning grammatik qo'shimchalarini erkin qabul qiladi. Masalan: *serverlar*, *hostingning*, *backup qilish*, *kompilyatsiya qilingan*. Bu holat o'zbek tilining agglutinatív tuzilmasi bilan bog'liq bo'lib, o'zlashmalar tezda grammatik integratsiyaga uchraydi. Fransuz tilida esa inglizcha terminlar ko'proq fonetik va morfologik moslashuvdan o'tadi, chunki fransuz tilining fleksion tizimi o'zlashmalarning erkin qo'llanishiga



imkon bermaydi. Natijada inglizcha birliklar ko‘pincha fransuzcha ekvivalentlar bilan almashtiriladi: *updater* → *mettre à jour*, *loader* → *chargeur*, *firewall* → *pare-feu*. Bu jarayon fransuz tilida inglizcha o‘zlashmalarga qarshi normativ yondashuvning mavjudligi bilan ham izohlanadi.

Ushbu uch jarayon – semantik torayish, semantik kengayish va grammatik moslashuv – AKT terminologiyasining shakllanishida markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, fransuz va o‘zbek tillarida turlicha nisbatlarda namoyon bo‘ladi. Fransuz tilida bu jarayonlar ko‘proq normativ nazorat ostida kechadi, o‘zbek tilida esa ular o‘zlashma asosida tabiiy ravishda shakllanib bormoqda. Bu esa har ikki tilning tipologik xususiyatlari va til siyosati bilan bog‘liq holda terminologik tizimning o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.

## XULOSA

Fransuz va o‘zbek tillaridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) terminologiyasi zamonaviy lingvistik jarayonlarning eng dinamik va o‘zgaruvchan qatlamini tashkil etadi. Raqamli transformatsiya, global texnologik taraqqiyot, sun‘iy intellektning keng qo‘llanilishi va internet texnologiyalarining universallashtuvi natijasida terminologiya tizimi muttasil boyib, yangilanib va qayta shakllanib bormoqda. Ushbu tadqiqot materiallari shuni ko‘rsatadiki, AKT terminlarining leksikografik tavsifi, funksional qo‘llanilishi va terminologizatsiya jarayoni fransuz va o‘zbek tillarida turli lingvistik va ijtimoiy tamoyillar asosida rivojlanmoqda. “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati” (2022) asosida o‘tkazilgan tahlil o‘zbek tilidagi AKT terminlarida uch asosiy model – to‘liq moslashgan, qisman moslashgan hamda adaptatsiyasiz inglizcha terminlar ustunligini ko‘rsatdi. Bu holat o‘zbek tilining texnik terminologiya sohasi hali ham shakllanish jarayonida ekanini, milliy termin yaratish mexanizmlari esa rivojlanish bosqichida ekanini tasdiqlaydi. Semantik tahlil esa AKT terminlarining ko‘pida metaforizatsiya, semantik torayish, semantik kengayish va terminologik ko‘chish kabi jarayonlar faol ekanini ko‘rsatdi. Fransuz tilida esa AKT terminologiyasi davlat tomonidan tartibga solinadigan tizim asosida standartlashtirilgan bo‘lib, CNRTL, DDF, TLF va L’Académie française kabi institutlar orqali normativ boshqaruv samarali amal qilmoqda. Bu tizim milliy terminlar yaratish imkonini kengaytiradi (*logiciel*, *courriel*, *pare-feu* kabi), inglizcha o‘zlashmalar ulushini cheklaydi va fransuz tilining texnik sohalarda mustaqil rivojlanishini rag‘batlantiradi. Funksional tahlil natijalari ko‘rsatadiki, fransuz tilida AKT terminlari texnik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstlarda faol qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa terminlar ko‘proq texnik va amaliy nutq doirasida barqarorlashgan, keng ijtimoiy qatlamlarga kirib borish jarayoni esa davom etmoqda. Bu farq fransuz jamiyatida raqamli madaniyatning tarixiy ildizlarga ega ekanligi, o‘zbek jamiyatida esa raqamli kommunikatsiyaning yangi bosqichda jadal rivojlanayotganligi bilan izohlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alexeyeva, L. (2008). *Termin i terminologiya*. Moscow: URSS, pp. 51–72.
2. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). *The Oxford guide to practical lexicography*. Oxford

- University Press.
3. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati. (2022). Toshkent: IT Park, pp. 15–230.
  4. Béjoint, H. (2000). *Modern lexicography: An introduction*. Oxford University Press.
  5. Blomqvist, O. (Ed.). (2009). *Lexicography and terminology: A worldwide outlook*. Cambridge: Cambridge Scholars Publishing, pp. 21–29, 112–118.
  6. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. Amsterdam: John Benjamins, pp. 11–33.
  7. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. John Benjamins.
  8. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales (CNRTL). (n.d.). *Terminologie informatique*.
  9. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales (CNRTL). (n.d.). *Terminologie informatique*.
  10. Dictionnaire des francophones (DDF). (2021). *Termes numériques*. Paris: Ministère de la Culture, pp. 8–19.
  11. Granger, S., & Paquot, M. (Eds.). (2010). *eLexicography in the 21st century: New challenges, new applications*. Presses universitaires de Louvain.
  12. Gross, G. (2000). Les dictionnaires électroniques et informatisés. In *French lexicography: From the origins to digital uses* (pp. 106–110). Paris: CNRS.
  13. Gross, G. (2000). Les dictionnaires électroniques et informatisés. In *French lexicography: From the origins to digital uses* (pp. 106–110). CNRS.
  14. Hanks, P. (2012). The corpus revolution in lexicography. *International Journal of Lexicography*, 25(4), 398–415. <https://doi.org/10.1093/ijl/ecs018>
  15. Kilgarriff, A., & Kosem, I. (2011). Corpus tools for lexicographers. In *Proceedings of eLex 2011*.
  16. Larousse Editorial Board. (2018). *Dictionnaire de l’informatique*. Paris: Larousse, pp. 45–122.
  17. Le Robert. (2020). *Dictionnaire du numérique*. Paris: Le Robert, pp. 12–84.
  18. Myking, J. (2005). The dynamics of new technical terminology. In *Lexicography worldwide* (pp. 88–101).
  19. Myking, J. (2005). The dynamics of new technical terminology. In *Lexicography worldwide* (pp. 88–101).
  20. Pruvost, J. (2024). *French digital lexicography: Metamorphosis, status quo and future directions*. Author-provided PDF, pp. 1–13.
  21. Pruvost, J. (2024). *French digital lexicography: Metamorphosis, status quo and future directions*. Author-provided PDF.
  22. Rey, A. (1995). *Essays on terminology*. John Benjamins.
  23. Sadikova, S. A. (2023). Theoretical and practical basics of creating modern electronic dictionaries. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(10), 5–8.
  24. Shcherba, L. V. (1936). Opyt obshchey teorii leksikografii. In *Russko-frantsuzskiy slovar’* (pp. 3–17).
  25. Sinclair, J. M. (1987). *Looking up: An account of the COBUILD project in lexical computing*. Collins.
  26. Trésor de la langue française informatisé (TLFi). (2020). CNRS.
  27. Trésor de la langue française informatisé (TLFi). (2020). CNRS. <https://www.atilf.fr/tlfi>
  28. UzAS (O‘zbekiston Respublikasining axborot siyosati standartlari). (2020). *AKT terminlarini qo‘llash qoidalari*. Toshkent, pp. 4–33.
  29. Wüster, E. (1979). *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*. Bonn: Romanistischer Verlag, pp. 14–67.
  30. Wüster, E. (1979). *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*. Romanistischer Verlag.

## REFERENCES

1. Alexeyeva, L. (2008). *Term and terminology*. Moscow: URSS.
2. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). *The Oxford guide to practical lexicography*. Oxford University Press.
3. Béjoint, H. (2000). *Modern lexicography: An introduction*. Oxford University Press.
4. Blomqvist, O. (Ed.). (2009). *Lexicography and terminology: A worldwide outlook*. Cambridge Scholars Publishing.
5. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. Amsterdam: John Benjamins.
6. Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. John Benjamins.
7. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales. (n.d.). *Computer terminology*.
8. Centre National de Ressources Textuelles et Lexicales. (n.d.). *Computer terminology*.
9. *Dictionary of Francophones*. (2021). *Digital terms*. Paris: Ministry of Culture.
10. *Explanatory dictionary of information technology terms*. (2022). Tashkent: IT Park.
11. Granger, S., & Paquot, M. (Eds.). (2010). *eLexicography in the 21st century: New challenges, new applications*. Presses universitaires de Louvain.
12. Gross, G. (2000). Electronic and computerized dictionaries. In *French lexicography: From the origins to digital uses* (pp. 106–110). Paris: CNRS.
13. Gross, G. (2000). Electronic and computerized dictionaries. In *French lexicography: From the origins to digital uses* (pp. 106–110). CNRS.
14. Hanks, P. (2012). The corpus revolution in lexicography. *International Journal of Lexicography*, 25(4), 398–415. <https://doi.org/10.1093/ijl/ecs018>.
15. Kilgarriff, A., & Kosem, I. (2011). Corpus tools for lexicographers. In *Proceedings of eLex 2011*.
16. Larousse Editorial Board. (2018). *Dictionary of information technology*. Paris: Larousse.
17. Le Robert. (2020). *Dictionary of digital technology*. Paris: Le Robert.
18. Myking, J. (2005). The dynamics of new technical terminology. In *Lexicography worldwide* (pp. 88–101).
19. Myking, J. (2005). The dynamics of new technical terminology. In *Lexicography worldwide* (pp. 88–101).
20. Pruvost, J. (2024). *French digital lexicography: Metamorphosis, status quo and future directions*. Author-provided PDF.
21. Pruvost, J. (2024). *French digital lexicography: Metamorphosis, status quo and future directions*. Author-provided PDF.
22. Rey, A. (1995). *Essays on terminology*. John Benjamins.
23. Sadikova, S. A. (2023). Theoretical and practical basics of creating modern electronic dictionaries. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(10), 5–8.
24. Shcherba, L. V. (1936). *An attempt at a general theory of lexicography*. In *Russian–French dictionary* (pp. 3–17).
25. Sinclair, J. M. (1987). *Looking up: An account of the COBUILD project in lexical computing*. Collins.
26. *Treasury of the French Language (Digital Edition)*. (2020). CNRS.
27. *Treasury of the French Language (Digital Edition)*. (2020). CNRS.
28. UzAS (Uzbekistan Republic Information Policy Standards). (2020). *Rules for the use of ICT terminology*. Tashkent.
29. Wüster, E. (1979). *Introduction to general terminology theory and terminological lexicography*. Bonn: Romanistischer Verlag.
30. Wüster, E. (1979). *Introduction to general terminology theory and terminological lexicography*. Romanistischer Verlag.